



ГРАФИК ПЛАТЕЖЕЙ*
к договору (контракту) от 19.01.2022 г. № 60

между "КО'К-ТЕРАК" МЧЖ и Тошкент тумани МТБ на общую сумму 8992500,00

Глава _____ 251
Казначейский лицевой счёт _____ 400722860272657091100251039

(в сумах)

Наименование месяцев 2022 г.	Виды расходов** (соответствующий код бюджетной классификации)			Всего
	4252300			
Январь				
Февраль	8 992 500,00			8 992 500,00
Март				
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август				
Сентябрь				
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь				
Всего за год	8 992 500,00			8 992 500,00

Всего 8992500,00 сум

Восемь миллионов девятьсот девяносто две тысячи пятьсот сум
00 тийин
сумма прописью

Из вышеуказанной суммы 2697750,00 сум или 30,00%*** от общей суммы договора подлежат предоплате в Февраль мес. 2022 г.

(*) — Бюджетные организации, получатели бюджетных средств и получатели средств ДЦФ, предоставляют в казначейские органы в 2 -х экземплярах;

(**) — Указывается раздел, глава, параграф и статья расхода;

(***) — Месячный _____% , от указанной выше суммы который необходимо оплатить до _____ числа текущего месяца. (Данное поле заполняется со стороны бюджетных организаций, получателей бюджетных средств и получателей средств ДЦФ в случае осуществления предоплаты в соответствии с порядком, установленным законодательством по договорам за оказание коммунальных услуг, услуг связи и предоставления в регулярном порядке товара (работ, услуг) указанных в правовых документах.)

Руководитель заказчика



А. Карбоева

(подпись)

Карбоева Лола Тулкиновна

Ф.И.О.

Главный бухгалтер заказчика

Зупаров

(подпись)

Зупаров А. Т.

Ф.И.О.

Принял работник казначейского подразделения _____

(подпись)

Получил работник заказчика _____

(подпись)

«__» _____ 20__ г.

«__» _____ 20__ г.

№ 60- sonli
MAXSULOT YETKAZIB BERISH
SHARTNOMASI

2022 yil " 18 " yanvar

Keles shaxri.

Nizomga asosan faoliyat yurituvch keyinchalik matinda "Maxsulot yetkazib beruvchi" deb ataluvchi "Ko'k-terak" mas'uliyati cheklangan jamiyatining rahbari **B.Aripov** orqali bir tomondan, Nizomga asosan faoliyat yurituvch, bundan buyon matinda "Xaridor" deb ataluvchi **МТБ Ташкент тумани** rahbari S.T. Karaboyeva ikkinchi tomondan quyidagilar haqida shartnoma tuzdik.

1.Shartnoma predmeti.

1.1. Ushbu shartnoma bo'yicha "Mahsulot yetkazib beruvchi" mahsulotni yetkazib berish "Xaridor" shartnomada ko'zda tutilgan hamda uning tarkibiy qismi (spetsifikatsiyasi) da qayd etilgan va tomonlarning kelishuvi bo'yicha mahsulotlar uchun olinadigan pul o'tkazish, ko'rsatilgan miqdordagi mahsulotlarni qabul qilib olishni o'z zimmasiga oladi.

2. Maxsulotlarni miqdori, xilma-xilligi (assortimenti) va yetkazib berish tartibi.

2.1. Yetkazib berilgan non va non mahsulotlari, qandolat va milliy mahsulotlarni miqdori, kengaytirilgan xilma-xilligi (assortimenti) ushbu shartnomada va uning tarkibiy qismi (spetsifikatsiyasi) da aniqlab beriladi.

2.2. Tayyor mahsulotni yetkazib berish yoki korxonada berish jadvallarini kelishish, o'zaro tasdiqlash tashabbusi "Xaridor" tomonidan bo'lib shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi va "Mahsulot yetkazib beruvchi" ga yildan ikki marotaba taqdim etiladi, yozgi mavsumda yilning 2-3 choraklarida, qishki mavsumda yilning 1-4 choraklarida.

Mahsulotni yetkazib berish jadvallari kelishish uchun "Mahsulot yetkazib beruvchi"ga yilning yozgi va qishki mavsumlariga 10 kun qolganida taqdim etiladi.

2.3. Mahsulotni sutkalik yetkazib berish, "Xaridor" ning 24 soatdan kechikmay yozma yoki telefonograma orqali, mahsulotning miqdori va xilma-xilligi (assortimenti) bo'yicha keying sutka uchun bergan arizasiga binoan amalga oshiriladi.

"Xaridor" zaruriyat bo'lsa, tasdiqlangan jadvalda ko'rsatilgan mahsulot olib kelish muddatidan 10 soat ilgari yozma ravishda arizalarga o'zgartirish kiritish huquqiga ega. Ushbu muddatdan kechikkan arizalar o'zgartirishlar qayta ko'rib chiqilmaydi va bajarilmaydi.

Non va non mahsulotlari, qandolat va milliy mahsulotlarni jo'natishda ariza berilmagan holda, ilgari kelishilgan arizalarga binoan amalga oshiriladi.

Hisoblar o'z vaqtida to'lanmagan holatida "Mahsulot yetkazib beruvchi" "Xaridor" ning arizalarini bajarish majburiyatida ozod etiladi.

2.4. Mahsulot yetkazib berishda o'zaro kelishilgan jadvalda ko'rsatilgan muddatdan kunduzgi va tungi paytda 2 soatga o'zgartirishga ruxsat etiladi.

2.5. Mahsulot yetkazib berishda "Mahsulot yetkazib beruvchi" ning markazlashtirilgan mahsus avtoullovi orqali "Xaridor" hisobidan amalga oshiriladi, bunda albatta qo'shimcha (Avtoulov xizmati, uskuna anjomlari va yuklovchi ekspeditorlarning maoshlari) xarajatlar hisobiga olinadi.

Agar "Xaridor" ko'rsatilgan xarajatlarga rozi bo'lmasa "Xaridor" ning o'ziga mustaqil buyurtma qilib savdo shaxobchalariga mahsulotni yetkazish, tushurish huquqi beriladi, bu holda

avtoularning sanitariya pasporti, mahsulotni kuzatuvchining "Haydovchi-ekspeditorni" taqdimnomasi bilan birga avtoularning mahsus jihozlangan bo'lishi shart.

2.6. Non va non mahsulotlari, qandolat va milliy mahsulotlarni jo'natish va qabul qilishda quyidagi rekviziti bo'lgan yuk transport varaqasi to'ldiriladi:

a) "Mahsulot yetkazib beruvchi" ga mahsulotning nomi ulgurji narxi, erkin bohodagi mahsulot uchun QQS, idishlar (tara) soni; miqdori soni va bir xil tur mahsulot og'irligi, mahsulot sertifikatiga javobgar shaxsning imzosi va muxri.

b) "Xaridor" ga miqdor soni va har bir tur mahsulot og'irligi barcha qabul qilingan mahsulotning umumiy soni: (sonlar yozuv tarzda) idishlar (tara) soni, mahsulotni qabul qilishdan bosh tortilganda, qaytarish sabablari, qabul qiluvchi shaxs imzosi va "Xaridor" muxri.

3. Yetkazib berilayotgan mahsulot sifati.

3.1. Ushbu shartnomada ko'rsatilgan va yetkazib berilgan mahsulotlar o'rnatilgan davlat standartlariga, yo'riqnomalariga, sertifikatlariga va talablariga mos kelishi lozim.

3.2. Agar non va non mahsulotlari, qandolat va milliy mahsulotlarni o'rnatilgan vaqt ichida sotuvga tayyorlashda va sotishda ishlab chiqarish jarayoniga bog'liq bo'lgan yashirin kamchiliklar, yoki tashqi ko'rinishdagi kamchiliklar aniqlansa, "Xaridor" darhol "Mahsulot yetkazib beruvchi" ga xabar berib, uning vakilini chaqirtirib, birgalikda dalolatnoma tuzishlari shart.

4. Narx va hisob kitob tartibi.

4.1. Ushbu shartnomaga muvofiq yetkazib berilayotgan mahsulotlarga kelishilgan narxlarda xaq to'lanadi, agar xom-ashyoni, qo'shimcha materiallari, elektro energiyani, gazni va boshqalarning narxlari o'zgarsa shunga qarab mahsulotlarning tannarxi o'zgarishi mumkin.

4.2. Shartnomaning umumiy miqdori 15% QQS bilan Sakkiz million to'qqiz yuz to'qson ikki ming besh yuz so'm. Ushbu shartnomaning qiymati taxminan, aholining talabi va mahsulot tannarxining o'zgarishiga qarab o'zgartirilishi mumkin.

4.3. "Xaridor" mahsulotning 10 % miqdorida oldindan pul o'tkazish yoli bilan xaq to'lashi shart.

4.4. "Xaridor" har oyning yakuniga ko'ra o'tgan muddatidagi xaqiqiy olingan non va non mahsulotlari, qandolat va milliy mahsulotlari uchun hisob-kitobini aniqlash maqsadida belgilangan tartibda qarzlarni to'lash va buxgalteriya solishtirma dalolatnomasini (akt sverki) imzolashi shart.

4.5. "Xaridor" olingan mahsulotlar uchun to'lov vaqtini doimiy ravishda buzsa yoki o'zaro hisob-kitob qilishdan bosh tortsa "Mahsulot yetkazib beruvchi" berilgan mahsulot yuk xati yoki elektron yuk xati asosida "Xaridor" ning hisob raqamiga to'lov talabnomasi jo'natish huquqiga ega.

5. Mahsus shartlar.

5.1. "Xaridor" qabul qilingan mahsulotlarini shaxsiy savdo tarmoqlarida yoki do'koni orqali savdo qilishlari shart, keying sotuv uchun uchinchi shaxsga, shuningdek komissiya sharti bilan mahsulotni berish qat'iy ta'qiqlanadi.

"Mahsulot yetkazib beruvchi" yoki "Toshkent non" uyushmasi mahsulot yetkazib berishidagi hamkorlik sifatida mazkur shartnomaga muvofiq olinga mahsulotlarni saqlash sharoitlarini va sotilishini nazorat qilish huquqiga ega

5.2. "Xaridor" ning yuridik manzili o'zgarsa, hisob raqami boshqa bankka o'tilsa, shuningdek savdo qilishga ruxsatnomasining muddati tugasa yoki olib qo'yilish to'g'risidagi ma'lumotnomani "Mahsulot yetkazib beruvchi" ga uch kun muddat ichida ma'lum qilish majburiyatini oladi.

6. Tomonlarning javobgarligi va nizolarni xal qilish tartibi.

6.1. "Mahsulot yetkazib beruvchi" tayyor mahsulotni yetkazib berish jadvalini shartnomada ko'rsatilgan muddatda yetkazib bermasa, "Xaridor" ga O'zbekiston Respublicasida o'rnatilgan eng kam oylik ish xaqqining 20% miqdorida jarima to'laydi.

6.2. Kelishilgan jadvaldagi mahsulotlarni olish va berishdagi har-bir buzilish holatiga sabab bo'lgan tomon qarshi tomonga O'zbekiston Respublicasida o'rnatilgan eng kam oylik ish xaqqining 20% miqdorida jarima to'laydi.

6.3. "Xaridor" "Mahsulot yetkazib beruvchi" ga kelishish uchun jadvalni kechikib berishi yoki bermaganligi oqibatida iste'molchini kerakli mahsulot bilan ta'minoti buzilishida to'liq javobgarlik "Xaridor" zimmasiga yuklanadi.

6.4. Mahsulotni to'liq olmasdan yoki shartnomada ko'rsatilgan muddatda yetkazib berilgan mahsulotni olishdan asossiz bosh tortilganda "Xaridor" "Mahsulot yetkazib beruvchi" ga olnmagan mahsulot qiymatining 10% miqdorida jarima to'laydi, shuningdek, "Xaridor" "Mahsulot yetkazib beruvchi" ga avtoullovning bajarilmagan ishiga ketgan xarajatlarini to'laydi.

6.5. To'lov talabnomasi aktseptidan asossiz to'la va qisman hamda mahsulotga to'lov shartidan bosh tortganda "Xaridor" ushbu to'lanmagan yoki bosh tortilgan to'lovning 15% miqdoridagi jarima "Mahsulot yetkazib beruvchi" ga har-bir kechikkan kuni uchun to'laydi.

Yetkazilgan mahsulotlar uchun to'lovlar muddatidan kechiktirilsa, "Xaridor" "Mahsulot yetkazib beruvchi" ga har-bir kuni uchun kechiktirilgan to'lovning 0.4% miqdorida ustama xaq (penya) to'laydi, lekin u kechiktirilgan to'lovning 50% miqdoridan oshmasligi kerak.

6.6. Mahsulotni sotishda mazkur shartnomani 5.1., 5.3. bandlaridagi shartlarni har-biri buzilganligi uchun "Xaridor" "Mahsulot yetkazib beruvchi" ga sotilgan mahsulotning 50% miqdorida jarima to'laydi.

6.7. Jarimalarni to'lash, aybdor tomonning shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarini bajarishdan ozod etmaydi. To'lovlarni amalga oshirish uchun "Mahsulot yetkazib beruvchi" garov, kafolat, qarzdorning mol-mulkidan ushlab qolish kabi huquqlarga ega.

6.8. Ushbu shartnoma ijrosida tomonlar o'rtasida kelib chiqadigan barcha nizolar o'zaro kelisha olmagan xollarda Iqtisodiy Sudda O'zbekiston Respublikasi Qonunlari asosida ko'rib chiqiladi.

7. Fors-major.

7.1. Agar ushbu shartnomada ko'satilgan shartlar to'la va qisman bajarilishi yong'in, suv toshqini, er qimirlashi va boshqa tabiiy ofatlar, hamda urish, harbiy xarakatlar, qamal, davlat organlarining aktlari yoki xarakatlari, shuningdek tomonlarning nazoratidan chetda yuz beradigan barcha holatlar shartnoma tuzigandan keyin yuz bersa xech bir tomon javobgarlikka tortilmaydi, bunda shartnomaning ijro muddatlari shu holatlar, ularning oqibatlari bartaraf etilgunga qadar bo'lgan vaqtga suriladi.

8. Shartnomaning boshqa shartlari.

8.1. Ushbu shartnomada tomonlar imzo qo'yganlaridan boshlab 2022-yilning 31-dekabr kuniga qadar kuchda hisoblanadi.

8.2. Shartnoma tomonlarining shartlari bajarmaganliklari asosida, keltirilgan zararni undirib olib, muddatidan ilgari bekor qilinishi mumkin.

8.3. "Mahsulot yetkazib beruvchi" tomonidan "Xaridor"ga berilgan mahsulotlarning hujjatlari bo'yicha boshqa shaxslar ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotayotgani aniqlansa, "Mahsulot yetkazib beruvchi" bir tomonlama mazkur shartnomani bekor qilish huquqiga egadir. Shartnomani bekor qilganligi to'g'risida "Mahsulot yetkazib beruvchi" "Xaridor" yozma ravishda bildirishnoma yuboradi.

8.4. Ushbu shartnoma shartlariga tomonlarning o'zaro kelishib, qo'shimcha yozma shartlar tuzib chiqqan holatidagina o'zgartirishlar kiritish mumkin.


9. Tomonlarning yuridik manzillari va hisob kitob rekvizitlari

«MAHSULOT YETKAZIB BERUVCHI»

« XARIDOR»

MCHJ "KO'K-TERAK"

Toshkent viloyati, Toshkent tumani
Keles shaxri Keles yoli ko'chasi 113-uy
X/r: 23208000601952381001
«Davr bank»ning Chilonzor bo'limi
MFO: 01046 OKED 10710
STIR 202190684 Tel: 97-776-06-56



F.I.Sh. B.Aripov

Imzo:



Imzo:

2022 yil « 18 » yanvardagi
60 - sonli shartnomaga i l o v a

Maxsulot yetkazib berish SPESIFIKATSIYASI

No	Maxsulot nomi	O'lchov birligi	Soni	Narxi	Umumiy summasi 15% KKSsiz	15% KKS summasi	Umumiy summasi 15% KKS bilan
1.	Kolipli non 0,6 kg	dona	5995	1347,83	7 819 565,22	1 172 934,78	8 992 500



"Maxsulot yetkazib beruvchi"



"Xaridor"

Тошкент туман Мактабгача таълим бўлими BO73621420

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA**

1.Loyihaning turi: Shartnoma.

2.Loyihaning nomi: Mahsulot yetkazib berish haqida.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:

Shartnoma tovar yetkazib beruvchi-sotuvchi "Ko'k-terak" MChJ tomonidan ishlab chiqilgan. Toshkent tumani Maktabgacha ta'lim bo'limi mas'ul xodimi **TO'XTAJONOV SUNNATJON ANVAR O'G'LI** tomonidan **BO73621420** raqam bilan shartnoma loyihasi qonun hujjatlariga muvofiqligi to'g'risida huquqiy xulosa olish uchun 19.01.2022 yil E-huquqshunos elektron tizimi orqali Toshkent tuman yuridik xizmat ko'rsatish markazga yuborilgan.

4.Taklif: Shartnoma loyihasida shartnoma summasi QQS bilan 8 992 500 so'm deb yozilgan. Ammo, E-huquqshunos elektron tizimi orqali yuborilgan kontragent - "Ko'k-terak" MChJ tomonidan tasdiqlanmagan shartnoma loyihasida boshqa summa yozilgan. Ushbu summani to'g'ri hisoblanganligini Toshkent tumani Maktabgacha ta'lim bo'limi bosh hisobchisi ko'rib chiqishi lozim.

5.Xulosa:

Shartnoma loyihasi hozirgi kunda amalda bo'lgan 1998 yil 29-avgustdagi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi 670-I-son qonun talablariga rioya qilingan holda tuzilgan.

**Yuridik xizmat ko'rsatish markazi
bosh yuriskonsulti**



Q.A.Shadiyev

2022-yil 20-yanvar